



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
ABDUQAYUM YO‘LDOSH HIKOYALARIDA AKS ETGAN
IJTIMOIY MUAMMOLAR TAVSIFI

Raimqulova Sohiba Bahromovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

*Termiz shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati ma'naviy va ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari*


Annotatsiya: Mazkur maqolada Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida aks etgan ijtimoiy muammolar badiiy-estetik tahlil qilinadi. Tadqiqotda hikoya janrining zamonaviy adabiy jarayondagi o‘rni, uning ijtimoiy ongda ziddiyatlar, marosimchilik, iqtisodiy bosim, axloqiy inqiroz va shaxs mas’uliyati kabi masalalarni ifodalashdagi imkoniyatlari yoritiladi. “Dahshat” va “Biz o‘tgan yo‘llar” hikoyalari misolida jamiyatda ustuvor bo‘lib qolgan urf-odatlar, tanqislik sharoitidagi ijtimoiy psixologiya hamda hokimiyat va xalq o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Maqolada shaxsiy fojiya ortida yotgan ijtimoiy tizim muammolari ochib berilib, hikoya janrining dolzarb masalalarni poetik umumlashtirishdagi yetakchi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: hikoyachilik, ijtimoiy muammo, marosimchilik, ijtimoiy bosim, shaxs va jamiyat, axloqiy inqiroz, tanqislik, badiiy tafakkur, obraz poetikasi, zamonaviy o‘zbek adabiyoti

Аннотация: В статье анализируются социальные проблемы, отражённые в рассказах Абдукаюма Юлдашева, с художественно-эстетической точки зрения. Исследуются возможности жанра рассказа в осмыслении общественных противоречий, ритуализма, экономического давления, нравственного кризиса и ответственности личности. На примере рассказов «Дахшат» и «Мы прошли эти дороги» раскрываются социальные стереотипы, психология дефицита, а также отношения между властью и народом. Делается вывод о том, что личная трагедия в данных произведениях выступает формой обнажения системных социальных проблем, а жанр рассказа проявляет себя как ведущая форма художественного обобщения актуальной действительности.

Ключевые слова: жанр рассказа, социальная проблема, ритуализм, социальное давление, личность и общество, нравственный кризис, дефицит, художественное мышление, поэтика образа, современная узбекская литература

Annotation: This article examines the social problems reflected in the short stories of Abduqayum Yuldashev from an artistic and aesthetic perspective. The study explores the potential of the short story genre in representing social contradictions, ritualism, economic pressure, moral crisis, and individual responsibility. Through the analysis of the stories “Dahshat” and “The Roads We Have Passed,” the paper reveals social stereotypes, the psychology of scarcity, and the relationship between authority and society. The findings show that personal tragedy in these narratives functions as a means





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

of exposing systemic social issues, while the short story genre serves as a leading form for poetic generalization of contemporary reality.

Keywords: *short story genre, social problem, ritualism, social pressure, individual and society, moral crisis, scarcity, artistic thinking, image poetics, contemporary Uzbek literature*

Kirish

Zamonaviy o'zbek adabiyotida hikoya janri jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlarga eng tezkor va ta'sirchan munosabat bildiruvchi badiiy shakl sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ixcham janr bo'lishiga qaramay, hikoya inson hayoti bilan bog'liq murakkab muammolarni, ijtimoiy ziddiyatlar va ruhiy kechinmalarni kontsentratsiyalangan holda ifodalash imkoniyatiga ega. Shu bois hikoyachilik ko'pincha zamon muammolarini yirik epik janrlardan ham aniqroq va keskinroq yoritadi.

Abduqayum Yo'ldosh hikoyalarida ijtimoiy muammolar shaxsiy taqdirar fonida badiiy umumlashtiriladi. Yozuvchi tashqi falokat yoki favqulodda hodisalardan ko'ra, kundalik hayotda "odatiy" deb qabul qilinadigan qarorlar va stereotiplarning fojiaiy oqibatlarini tasvirlashga e'tibor qaratadi. Marosimchilik, tanqislik, ijtimoiy bosim va hokimiyatning o'zligi kabi masalalar qahramonlarning ichki kechinmalari orqali ochib beriladi. Shu jihatdan Yo'ldosh hikoyalarini ilmiy tahlil qilish zamonaviy o'zbek adabiyotida ijtimoiy ong va badiiy tafakkur munosabatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkor badiiy matn orqali muayyan davrning ruhiy holati, ijtimoiy ziddiyatlari va madaniy qadriyatlarini badiiy sintez darajasida ifodalagan taqdiragina asar o'z davridan yuksak ma'naviy-estetik baho olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur jarayon tabiiy ravishda yangi poetik dunyoni his etish va anglash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Badiiy asar zamon talablari va estetik izlanishlar asosida yangilanar ekan, unda qadriyatlar mohiyatining qayta talqini, yangi ijtimoiy-madaniy nuqtalarning shakllanishi va ularning badiiy ifodasi kuzatiladi. Bu holat adabiy jarayonning dinamik xususiyatini ta'minlab, ijodkorni an'anaviy tasvir usullaridan chekinib, yangi poetik yechimlarni izlashga undaydi.

Shu nuqtai nazardan, hajman kichik janr hisoblangan hikoyachilikning adabiy jarayondagi o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Hikoya ixcham shakliga qaramay, dolzarb ijtimoiy, axloqiy va ruhiy masalalarni tezkor va ta'sirchan tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgan janr sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu xususiyati tufayli hikoyachilik ko'pincha dolzarblik va zamonaviylik mezonlari bo'yicha yirik prozaik janrlardan ustunlik qiladi. Hikoyaning ushbu jihati A.Yo'ldoshning "Dahshat" hikoyasi qiyofasida nomoyon bo'ladi. "Dahshat" hikoyasida ijtimoiy muammo markaziga inson salomatligi emas, balki jamiyat ongida ustuvor bo'lib qolgan marosim mezonlari chiqariladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Muallif fojiani tashqi falokat sifatida emas, balki kundalik hayotda “normal” deb qabul qilinadigan qarorlar zanjiri sifatida ko‘rsatadi. Ayniqsa, to‘y va marosimlar ijtimoiy institutga aylangan bir muhitda individual hayotning qadri pasayib, shaxsning o‘z tanasi va taqdiriga doir qarorlari kollektiv me‘yorlar bilan boshqariladi.



Bu jarayon, avvalo, Zuhra obrazi orqali ijtimoiy stereotip, “sabrli ayol” timsoli fojiali tusda ochiladi. Shu o‘rinda M.Qo‘shjonovning mushohadali fikrini keltirish o‘rinli: “Adabiyot va san’atda shu xildagi asarlar borki, ularda tasvirlangan fojia qahramonlarning ma’lum bir muhitda adashishlari, ikkilanib qolishlari, muayyan bir pozitsiyada mustahkam turolmasliklari, boshqacha qilib aytganda, to‘g‘ri va noto‘g‘ri tebranishlar o‘rtasida qolishlari bilan bog‘liq”¹⁸. Zuhra kasallikni rad etmaydi, ammo uni “ikkinchi darajaga” suradi; uning nazarida eng oliy maqsad, bolajonining to‘yini ko‘rish va oilaning oldida “yuzi yorug‘ bo‘lishi”dir. Shuning uchun u og‘riq va xavfni “fidoyilik” sifatida ichiga yutadi. Bu esa ijtimoiy jihatdan ma‘qullanadigan, ammo biologik-axloqiy nuqtai nazardan halokatli qarorga aylanadi. Qahramonning o‘zi buni ochiq e‘tirof etadi: “— Qiyinchiliksiz bir narsaga erishib bo‘ladimi, dadasi? Mayli, qiynalsam men qiynalay, faqat bolajonimning to‘yini o‘tkazib olsam bo‘ldi. Chidayman... Hammasiga chidayman...”¹⁹. Qahramonning bu nutqi shaxsiy azobning “mukofot” (to‘y) yo‘lida oqlanishini ko‘rsatadi. Ijtimoiy ong esa bu oqlashni qadriyatga aylantirib, ayolning og‘riqqa chidashini “normal” va “kerakli” holat sifatida ko‘rsatadi. Demak, hikoyada muammo kasallikda emas, balki kasallikka munosabatni belgilovchi ijtimoiy qadriyatlar tizimidadir: sog‘liq vaqtinchalik, marosim esa shart bo‘lib qoladi.

Ikkinchi tomondan, muallif to‘y va marosimning real semantikasini ham o‘zgartiradi. To‘y bu yerda quvonch timsoli bo‘lishdan chiqib, shaxs hayotini siquvchi, iqtisodiy hamda psixologik bosim ishlab chiqaruvchi mexanizmga aylanadi. To‘y tashvishlari tafsilotlarining qasddan ko‘paytirilishi marosimning an‘anaga aylanganini bildiradi. Kitobxonni ham “tashvish ritmi”ga majburan kiritadi. Bu jarayon ijtimoiy bosimni konkretlashtirib beradi: “Undan keyin... to‘yning o‘zi bo‘ladimi?! Eh-he, hali oldinda qalashib turgan tashvishlarni sanayversang, esing og‘ib qolguday ahvolga tushasan: o‘n juft ko‘rpa, o‘n juft ko‘rpacha, shuncha yostiq, shularga yetarli paxta, qudalarga sarpo, to‘n, kelinga tilla sirg‘a... Bular ham mayli. Eng og‘iri — oldinda tog‘day ulkan bir tashvish: restoran! Uni o‘ylasang bo‘ldi, boshing aylanib ketadi: nahorda besh yuz kishiga osh, kechqurun to‘rt yuz mehmonga bazm. Osonmi bu?.. ...Bularning bariga pul kerak, pul...”²⁰. Bu orqali ijodkor marosimning ikki qatlamli ijtimoiy bosimini ochadi. Birinchidan, to‘y “odamlar oldidagi hisob” sifatida ko‘riladi (ko‘rpa-yostiq, sarpo, taqinchoq kabi atributlar majburiy standartga aylanadi). Ikkinchidan, to‘y iqtisodiy manbani so‘ruvchi jarayonga aylanishi orqali oilani psixologik siquvga soladi. Natijada

¹⁸ Qo‘shjonov, Matyoqub. Tanlangan asarlar: adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar. – T.: “Sharq”, 2018. – 315 b. (712 b.)

¹⁹ Abduqayum Yo‘ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / Abduqayum Yo‘ldosh.- Toshkent: Akademnashr, 2022.- 143 b. (176 b.)

²⁰ Abduqayum Yo‘ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / - Toshkent: Akademnashr, 2022.- 144 b. (176 b.)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


salomatlik va tibbiy zaruratlar “keyin”ga surilib, marosim esa “hozir va shart” bo‘lib qoladi.

Shu tariqa hikoyada ijtimoiy muammo quyidagicha shakllanadi: jamiyatda marosim va urf-odatlar qadri shunchalik kuchayadiki, u inson hayoti va sog‘lig‘ini ikkinchi planga suradi; ayolning og‘riqqa chidashi esa “sabr” emas, balki ijtimoiy bosimga moslashishning fojiaiy ko‘rinishiga aylanadi. Muallif bu holatni ochiq nasihat bilan emas, balki iqtiboslarda mujassam oddiy fikrlar orqali fosh etadi. Qahramonlar o‘zlarini oqlayotgan paytning o‘zida tizimning nechog‘li vayronkor ekanini o‘quvchiga anglatib qo‘yadi. Natijada dahshat tashqi hodisada emas, balki ijtimoiy ongning ichida ildiz otgan odatiy qarorlar so‘ngra mentaliteti va marosimga qaramlik zanjirida namoyon bo‘ladi. “Epik asar o‘rganilayotganda personajlar xatti-harakatlari uning xarakter mantiqiga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi tahlilning markazida turishi kerak”²¹. Hikoya zamon muammolariga tezkor munosabat bildirish, ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni badiiy idrok etish va ularni poetik umumlashtirishda yetakchi janrlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Nazar Eshonqul “Kitob bandasi” nomli maqolalar, esselardan tarkib topgan, adabiy-estetik qarashlari aks etgan kitobida yuqoridagi munosabatning davomi o‘laroq, yozuvchi Shukur Xolmirzayev haqidagi fikrlarini davom etkizib, shunday yozadi: “Shukur akaning hikoyalari oddiy dardning ulug‘vor ko‘rinishlaridir. Shukur akaning aksar qahramonlari oddiy kun kechirayotgan, bir qarashda Vatanga, millatga, umuminsonga daxli yo‘q odamlar. Ammo yozuvchining nigohi shu darajada o‘tkirki, u ana shu daxlsizlik ortida yotgan millatga, Vatanga, bani basharga daxldor dardlarni ko‘ra biladi, tasvirlay oladi, ko‘rsatib bera oladi. Davr va zamon qancha jinjimalarga o‘ramasin, uni qanchalik moddiylashtirmasin, “robotlashtirmasin”, Shukur Xolmirzayev nigohi uni - do‘zaxiy jinjimalar, ohanjamallar ichidagi insonni, uning dardini ko‘roladi, bu dardni Abdulla Qahhor uslubidan farqli ravishda ko‘rsatib berdi. Abdulla Qahhor hikoyachilik maktabida Chexovning uslubi va ta’siri seziladi. Bu ba’zi adabiyotshunoslar kabi “Abdulla Qahhor maktabi yo‘q” deyish nafaqat katta yozuvchini inkor qilish, balki o‘zbek hikoyachiligining zamonaviy janr sifatidagi debochasini — muqaddimasini, yorqin, katta ustunini ham inkor qilish bilan barobardir”²². Adabiy jarayonni tahlil etishda muhim nazariy masalalardan biri, shubhasiz, adabiy ta’sir hisoblanadi. Adabiy ta’sir badiiy asarning faqat ichki poetik imkoniyatlari bilan cheklanib qolmay, uning ijtimoiy-madaniy muhit, zamon va makon bilan uzviy uyg‘unlashuvini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihat muayyan hikoyalarning adabiy jarayonga faol kirib borishiga, zamonaviy o‘quvchi ongida yashovchan badiiy hodisaga aylanishiga imkon yaratadi. Natijada bunday asarlar milliy adabiyot doirasidan chiqib, keng o‘quvchilar qatlamiga yetib boradi hamda o‘zbek adabiyotining yaqin va uzoq madaniy makonlarda ommalashuviga xizmat qiladi. Mazkur jarayon o‘z navbatida o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonlariga jadal integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

²¹ Q. Yo‘ldosh, M. Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari / - Toshkent: «KAMALAK» nashriyoti 2016. – 283 b. (464 b.)

²² Nazar Eshonqul. Kitob bandasi. Maqolalar, esselar. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - B. 318. (416)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Milliy hikoyachilikda yaratilgan badiiy tajribalar umumjahon estetik mezonlari bilan mushtaraklik kasb etar ekan, ular global adabiy makonda muayyan darajada ta'sir kuchiga ega bo'lgan badiiy hodisa sifatida e'tirof etila boshlaydi. Bu holat adabiyotning faqat milliy o'zlikni ifodalovchi san'at turi emas, balki madaniyatlararo muloqot vositasi sifatidagi funksiyasini ham kuchaytiradi.


Zamonaviy o'zbek hikoyachiligiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri, janr maydonining kengligi va uning ichki xilma-xilligidir. Hikoya janrida muallif erkinligi bilan janr qonuniyatlarining garmonik uyg'unlashuvi kuzatiladi. Bunday muvozanat ijodkorga an'anaviy hikoya shakllaridan foydalanish bilan bir qatorda, yangi badiiy tajribalarni amalga oshirish imkonini beradi. Natijada hikoya janri doirasida mazmun va shakl jihatidan rang-barang, estetik qarashlari turlicha bo'lgan asarlar yuzaga kelmoqda.

Dunyoqarash va estetik muvofiqlashuv natijasida zamonaviy hikoyalarda global taraqqiyotning yangi qiyofasi ijtimoiy-madaniy idrok asosida badiiy ifoda topmoqda. Bu jarayonda mualliflar tarixan shakllangan hikoya janrining tub, asosiy ko'rinishlariga murojaat qiladilar. "Tasvirga qamrab olingan xayotiy borliq ko'lamining kengligi, murakkab insoniy taqdir, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar muayyan voqea-xodisalar fonida idrok etilishi bilan ajralib turadigan epik asarlarni tahlil qilish mam o'ziga xos yondashuvni taqozo qiladi. Epik asarlarda personajlar kechinmasini tasvirlash, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berishdan ko'ra, shu tuyg'ularning paydo bo'lish jarayoni, ularning hayotiy-ruhiy ildizlari qayerda ekanini ko'rsatishga ko'proq e'tibor qaratiladi"²³. Chunki aynan ushbu barqaror janr modellari ijodkorning badiiy niyatini, asosiy g'oyaviy muddaosini ifodalash yoki o'ziga xos ijodiy yo'lini modellashtirish uchun qulay estetik platforma vazifasini bajaradi.

Shu tariqa, zamonaviy o'zbek hikoyachiligi an'ana va yangilik, milliylik va universallik, janr qonuniyati va muallif erkinligi o'rtasidagi murakkab, ammo samarali uyg'unlik asosida rivojlanib, adabiy jarayonning yetakchi va faol segmentiga aylanmoqda. Nazar Eshonqul o'sha manbadagi fikrlarini davom etkizib shunday yozadi: "Shukur akaning, shubhasiz, XX asr o'zbek adabiyotining ulkan yutuqlari, deb aytishga va bu hikoyalarni janr imkoniyatlarini kengaytirgan maktab deyishga arziydigan asarlari yozuvchini o'tgan asrning emas, kechagi kunning emas, barcha davrlarning o'ziga xos katta yozuvchisi deyishga arziydigan shohsupaga chiqarib qo'yadi"²⁴. Shukur Xolmirzayev ijodining markazida muhitning tashqi manzaralarini fosh etish emas, balki insonning ana shu muhitdagi o'rni, ruhiy holati va ichki og'rig'ini badiiy tadqiq etish masalasi turadi. Yozuvchi asarlarida muhit mustaqil tasvir obyektiga aylantirilmaydi; aksincha, u inson qalbida aks etuvchi ruhiy jarayonlar orqali ochib beriladi. Shu bois Xolmirzayev hikoyalarida muhit inson ko'nglining o'ziga xos badiiy aks-sadosi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy fojia, ma'naviy bosim va davr ziddiyatlari bevosita tashqi tasvirlarda emas, balki qahramon ichki dunyosida mujassam holda ifodalanadi.

²³ Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. / - Toshkent: "KAMALAK" nashriyoti 2016. - 280-b. (- 464 b.)

²⁴ Nazar Eshonqul. Kitob bandasi. Maqolalar, esselar. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - B. 319. (416)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Adib estetik konsepsiyasida muhitning o'zini tasvirlashga haddan tashqari berilish muayyan badiiy xavfni keltirib chiqaradi. Ya'ni muhitni bevosita aks ettirishga urinish yozuvchini mayda tafsilotlar, tashqi joziba va tasviriy "jinjimalar" domiga tortib, inson qalbidagi asosiy ruhiy dardni chetlab o'tishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatda ijodkor muhitni fosh etuvchi emas, balki uning oddiy tasvirchisiga aylanib qoladi. Xolmirzayev esa bu yo'ldan ongli ravishda voz kechib, inson ko'nglidagi dardni topishni badiiy ijodning bosh mezoni sifatida belgilaydi.

Yozuvchining badiiy-falsafiy qarashlariga ko'ra, inson qalbidagi og'riqni chuqur anglab va badiiy ifodalay olgan ijodkor muhitni ham fosh qilgan hisoblanadi. Chunki, har qanday ijtimoiy-madaniy muhit o'zining asl mohiyatini eng avvalo inson ruhiyatida namoyon etadi. Muhitning adolatsizligi, fojiaiy tabiati va ruhiy bosimi inson qalbidagi ichki sinishlar, sukutlar va iztiroblar orqali ochilgandagina chinakam badiiy haqiqat darajasiga ko'tariladi. Shu jihatdan Shukur Xolmirzayev hikoyalarida psixologik tahlil ijtimoiy tahlildan ustun turadi.

Adibning hikoyalari XX asr o'zbek adabiyotining yirik badiiy yutuqlari sifatida baholanadi. U yaratgan asarlar hikoya janrining estetik imkoniyatlarini kengaytirib, o'ziga xos adabiy maktab darajasiga ko'tarildi. Ushbu maktab ixcham janr doirasida murakkab ruhiy, axloqiy va ijtimoiy-falsafiy masalalarni yuksak badiiy saviyada yoritish bilan ajralib turadi. Shu bois Xolmirzayev ijodi yozuvchini faqat o'tgan asr adibi sifatida emas, balki barcha davrlar uchun dolzarb bo'lgan yirik ijodkor maqomiga olib chiqadi.

Ijodkor badiiy pozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini to'laqonli ochib beradi. Unda yozuvchining inson psixologiyasiga chuqur kirib borishi, insonning ichki dunyosini muhit bilan uzviy bog'liqlikda tasvirlash mahorati yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, adib asarlarining nafaqat muayyan tarixiy davr muammolari bilan cheklanmaydi. Balki umuminsoniy masalalarni qamrab olishi uning ijodini zamon va makon chegaralaridan yuksak turuvchi, mangu badiiy qadriyat darajasiga ko'taradi. Shukur Xolmirzayevning ijodiy laboratoriyasi bevosita mavzuyimiz bilan aloqador va mavzuda ko'tarilgan muammoni yoritishga materil bo'la oladi. Bu haqda Nazar eshonqul yana yozadi: "Shukur aka hayotni adabiyotsiz tasavvur qilolmasdi. Adabiyotsiz hayot uning uchun yovvoyilik bo'lib tuyulardi. Adabiyot o'qimagan odamni odam deb tan olmasdi, adabiyotdan yiroq jamiyat bilan murosqa qilgisi kelmasdi. Shuning uchun Shukur akani sho'ro tuzumi ko'pam xushlamagan. Adabiyot Shukur aka uchun ko'zgu edi. Adabiyot xalqning sha'ni, dardi, hasrati, ko'ngli, ruhi edi. Shu sababli ham adabiyotga xiyonat qilgisi kelmasdi. O'z fikriga, o'z qarashiga, o'z o'lchamiga ega edi. Shuning uchun boshqalar yasab bergan o'lchamlarga amal qilmasdi, hammaga o'xshab fikrlagisi, yozgisi, yashagisi, yaliningisi, maqtalgisi, turlangisi kelmasdi. Bir so'z bilan aytganda, Shukur Xolmirzayev shaxs edi. Adabiyotda ham, hayotda ham shaxs edi... Adabiyotda iste'dodlar talaygina bo'ladi. Iste'dodlarni turli yo'llarga sarflashadi. Ammo ham hayotda, ham ijodda shaxslar kamdan-kam tug'iladi. ... Adabiyotning fojiasi iste'dodlar yo'qligidan emas, adabiy shaxslar yo'qligi tufaylidir. Adabiy shaxslari bo'lmagan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

adabiyot yaltoqlangan adabiyot bo'lib kelgan. Shu ma'noda Shukur aka adabiy shaxs edi"²⁵. Adabiyot xalqning ma'naviy borlig'i, tarixiy xotirasi va ruhiy olamining badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi. U xalqning sha'ni, dardi, hasrati, ichki kechinmalari va pinhona ruhiy sirlarini mujassamlashtirgan ijtimoiy-madaniy hodisadir. Shu jihatdan adabiyot jamiyat hayotini aks ettirish bilan bir qatorda, unga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan muhim estetik institut sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy asar orqali xalqning ruhiy holati, ma'naviy izlanishlari va ijtimoiy muammolari badiiy umumlashtirish darajasiga ko'tariladi. Ushbu masalalar A.Yo'ldoshning "Biz o'tgan yo'llar" hikoyasida namoyon bo'ladi mazkur hikoya o'zbek qishlog'ining mustaqillikning ilk yillaridagi ijtimoiy-ruhiy manzarasini badiiy umumlashtirish orqali ochib beradi. Asarda konkret voqea, uch qop ortiqcha un atrofidagi mojaro ijtimoiy tizimdagi chuqur inqiroz, ongdagi parokandalik va qadriyatlar yemirilishining ramziy ifodasiga aylantiriladi. Badiiy voqelikning tarixiy-psixologik fonini muallif darhol ochib beradi: "Yo'g'on cho'zilib, ingichka uziladigan ko'klam payti edi..."; shu fon ortidan "talon" mexanizmi va taqchilikning ijtimoiy reflekslari ko'rinadi: "O'zbekovuldagi yagona oziq-ovqat do'koniga... uch qop un ortiqcha olib kelingani haqidagi xabar qishloqqa yashin tezligida tarqaldi... bir pasda do'kon oldiga tumonat odam to'plandi". Mazkur tasvir "tanqis resurs, jamoaviy vahima" modelini yuzaga chiqarib, ijtimoiy munosabatlar qanday tezlikda keskinlashishini badiiy fakt sifatida isbotlaydi. Ayniqsa, "talon tizimi"ga o'tilganidan beri ahvol shu... do'konga un kelsa bas, hammayoqni odam bosib ketadi"²⁶ degan jumla hodisaning favqulodda emas, balki tizimli tus olganini ko'rsatadi.

Hikoyaning markazida turgan "talon tizimi" sharoitida oziq-ovqat taqchilligi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni keskinlashtiruvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. To'rt kilo un uchun yuzaga kelgan janjal insoniy ehtiyojlarning minimal darajaga tushib qolganini, tirikchilik muammosi axloqiy mezonlarni siqib chiqarganini ko'rsatadi. Muallif manba tanqisligi sharoitida shaxsiy manfaat jamoaviy mas'uliyatdan ustun kelishini, "har kim o'zi uchun" tamoyili ustuvorlik kasb etishini ko'rsatadi. Biroq asarda bu holat biryozlama fojiaiy manzara sifatida emas, balki ijtimoiy psixologiyaning murakkab, ba'zan paradoksal ko'rinishi sifatida ochiladi: "Oxiri yaxshi tugagan narsa baribir yaxshi-da... to'rt kilo un uchun har qancha yoqa bo'g'ishmasin... maqsadlariga yetishgach, apoq-chapoq bo'lib ketishardi". Demak, konfliktning ildizi axloqiy yovuzlikdan ko'ra ko'proq ehtiyoj bosimi va ommaviy ruhiyatning "tez qo'zg'alib, tez bosiladigan" tabiatida yotadi. Shu o'rinda muallif odamlarning keskinlikdan so'ng o'z-o'zini oqlovchi yumshash mexanizmini ham ko'rsatadi: "navbat talash avjga chiqqan mahallari... sal qaltisroq hazil gaplar ham eshitilib qolar... aksariyati beixtiyor jilmayib qo'yishdan o'zlarini tiyib turolmasdi". Ammo ayni paytda bunday "yumshash" barqaror

²⁵ Nazar Eshonqul. Kitob bandasi. Maqolalar, esselar. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - B. 319. (416)

²⁶ Yo'ldoshev, Abduqayum. Osmon og'ushi: A. Yo'ldoshev. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyoti, 2018. — 41 b. (296 b.)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qadriyatga aylanmaydi: “Biroq bugun yig‘ilganlarning avzoyi buzuvchi edi”²⁷ — bu jumla ijtimoiy kayfiyatning beqarorligini, tanqislik kuchaygan sari jamiyatning xavf va bag‘rikenglik tuyg‘usi ham tugab borishini bildiradi. Natijada jamiyat ichida ijtimoiy birdamlik emas, balki raqobat va ishonchsizlik hukmron bo‘lib qoladi.

Hikoyada rais (Odil rais), oqsoqol, jarchi, amaldor kabi ijtimoiy rollar orqali hokimiyatning turli pog‘onalari ifodalanadi. “Ba’zi o‘rinlarda fojiaiylik to‘laqonli ijobiy qahramon obrazi yaratilgan paytlarda ham ko‘zga tashlanadi”²⁸. Odil rais obrazi mahalliy boshqaruvning o‘zligini, uning xalq va yuqori idoralar o‘rtasida siqilib qolgan holatini aks ettiradi: u ommani boshqaruvchi omil markaz emas, balki vaziyatga moslashuvchi va xavfni sezganda chekinuvchi figura sifatida ko‘rinadi. Yuqoridan kelgan “mas’ul xodim” esa mutlaq befarqlik va byurokratik sovuqqonlik timsolidir; uning uch qop unni “normadan ortiqcha” sifatida olib ketishi adolatning tiklanishi emas, balki tizimning mexanik ishlashi, insoniy ehtiyojni inkor etishi va gavgdalanishidir. Shu tariqa asarda hokimiyat va xalq o‘rtasidagi uzilish ochiq badiiy ifodaga ega bo‘ladi: xalq “haq”ni talab qiladi. Biroq “haq” mezonlari ham, uni kafolatlovchi vaziyat ham yo‘q, faqat qo‘rquv va mavqega suyanishgina qoladi.


Hikoyada urug‘chilik, tanish-bilishchilik, bizniki-sizniki qarama-qarshiligi keskin ifodalanadi. Har bir qahramon o‘z da’vosini ijtimoiy maqom (ko‘p bolalik, mehnat staji, to‘y-ma’raka, “fidoyilik” kabi) bilan asoslashga urinadi. Bu hol jamiyatda umumiy adolat mezonining yo‘qolganini, qonuniy navbat emas, balki ijtimoiy bosim va ramziy kapital, ya’ni medal, mavqe, oqsoqollik, raisga yaqinlik qilish orqali manbaning taqsimlanishini anglatadi. Natijada ijtimoiy muammo iqtisodiy muammodan chiqib, axloqiy inqiroz darajasiga ko‘tariladi.

Ariq qazishga ketgan o‘n besh erkak obrazi hikoyada alohida semantik yuk kasb etadi: ular real ishlab chiqarish jarayonida suv, hosil, kelajak farovonligi uchun mehnat qilayotgan bo‘lsa-da, ularning mehnati jamoa tomonidan vaqtincha unutib yuboriladi, aytarli e’tirof etilmaydi. Keyinchalik, aynan, ariq qazilmagani oqibatida hosilning nobud bo‘lishi sabab-oqibat munosabatini ochib beradi: bugungi ochko‘zlik ertangi tanqislikka olib keladi. Demak, hikoya taqchillikni faqat tashqi omil sifatida emas, balki ijtimoiy ongda qisqa manfaatparastlik bilan ham bog‘laydi. Muallif mehnatga bepisand munosabat ijtimoiy tanazzulning asosiy sabablaridan biri ekanini ko‘rsatib beradi.

Asarning yakuniy qismi tahlil xarakterga ega bo‘lib, mustaqillikdan keyingi ijtimoiy ongda o‘zgarishlarni umumlashtiradi. Nodir obrazining muvaffaqiyatli fermerga aylanishi, bozor tafakkurining shakllanishi va tashabbuskorlikning kuchayishi tarixiy burilishni bildiradi. Bu burilish badiiy-falsafiy xulosa sifatida aniq ifodalanadi: “Odamlar allaqachon tekin baliq so‘rashdan ko‘ra, baliq tutishni o‘rganish kerak ekanligini bilib olishgan...”. Rovi (yoki kuzatuvchi subyekt)ning hissiy reaksiyasi ham ijtimoiy

²⁷ Yo‘ldoshev, Abduqayum. Osmon og‘ushi: A. Yo‘ldoshev. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. — 42b. (296 b.)

²⁸ Qo‘shjonov, Matyoqub. Tanlangan asarlar: adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar. — T.: “Sharq”, 2018. — 314 b. (712 b.)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

transformatsiyani mustahkamlaydi: “O‘zbekovulda yuz bergan o‘zgarishlarni ko‘rib, ham rosa hayratlandim, ham quvondim...”. Natijada “uch qop un” mojarosi zamonning o‘tkinchi fojeasi sifatida masofalanadi: “uch qop un voqeasi xuddi o‘tmish zamonlardan qolgan bir ertakdek tuyulib ketdi...”²⁹. Bunda muallif jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishini, qaramlik va da‘vogarlik psixologiyasidan mehnat va mas’uliyatga tayangan onga ko‘chishini badiiy istifoda etadi. “Epik asar matni rivoyat, tavsif va dialogdan tarkib topadi, shu bois ular epik nutqning kompozitsion shakllari sifatida e’tirof etiladi”³⁰. Shu jihatdan mazkur hikoya ijtimoiy masalalarni alohida shaxslar taqdiri orqali emas, balki jamoa ongining umumiy portreti orqali ochib berishi bilan ahamiyatli. “Uch qop un” voqeasi konkret tarixiy davr muammosidan chiqib, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy ong, mehnat madaniyati va adolat tushunchalarining o‘rni haqida umumiy falsafiy xulosaga olib keladi. Asarni nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-falsafiy qiymatga ega hikoya sifatida baholash mumkin.

Adib uchun adabiyotga xiyonat qilish masalasi, shunchaki, kasbiy yoki estetik muammo emas. Balki shaxsiy va ma’naviy mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Chunki, adabiyotga xiyonat qilish ijodkorning o‘z e’tiqodi, o‘zligi va ma’naviy tamoyillariga xiyonat qilish bilan barobar bo‘ladi. Shu bois adib o‘z fikriga, o‘z qarashlariga va o‘z estetik o‘lchamlariga ega bo‘lishi zarur. U boshqalar tomonidan belgilab berilgan andozalar yoki mafkuraviy talablarga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunmasligi, mustaqil badiiy tafakkur asosida ijod qilishi lozim. Bunday mustaqillik ko‘pincha hukmron g‘oyaviy talablar bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Biroq aynan shu ziddiyat ijodkor shaxsiyatining shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Adabiyotda iste’dodlarning ko‘pligi, biroq chinakam adabiy shaxslarning kamyoblighi alohida ta’kidlanadi. Iste’dod ijodiy qobiliyat va badiiy mahoratni anglatrsa, adabiy shaxs tushunchasi o‘z e’tiqodiga ega bo‘lgan, uni himoya qila oladigan, ma’naviy va estetik mustaqilligini saqlab qolishga qodir ijodkorni ifodalaydi. Adabiy qahramon — bu faqat yozuvchi emas. Balki jamiyat oldida mas’uliyatni his etadigan, haqiqatni badiiy so‘z orqali ifodalashga jur’at topa oladigan shaxsdir.



Xulosa

Xulosa qilib aytsak, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyachiligi zamonaviy o‘zbek adabiyotida ijtimoiy muammolarni badiiy idrok etishning muhim va ta’sirchan namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi hikoyalarida shaxsiy fojiya tasviri jamiyat ongida ildiz otgan stereotiplar, marosimchilik va tanqislik psixologiyasini ochib beruvchi badiiy vositaga aylanadi. Ijtimoiy muammo tashqi favqulodda hodisa sifatida emas, balki kundalik qarorlar, sukut bilan qabul qilingan me’yorlar va kollektiv ongning inertligi orqali yuzaga chiqishi ko‘rsatib beriladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida ijtimoiy muammo alohida shaxslarning aybi sifatida emas, balki butun jamiyat ongida

²⁹ Yo‘ldoshev, Abduqayum. Osmon og‘ushi: A. Yo‘ldoshev. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. — 52b. (296 b.)

³⁰ Quronov, Dilmurod. Nazariy qaydlar [Matn] / D. Quronov. — Toshkent: Akadem-nashr, 2018. — 5 b. (128 b.)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shakllangan ijtimoiy-axloqiy tizimning oqibati sifatida talqin etiladi. Marosimchilik va iqtisodiy bosim insoniy qadriyatlar ustidan ustuvor qo'yilishi orqali shaxsning ruhiy yemirilishiga olib keluvchi omil sifatida ochiladi. Shu tariqa yozuvchi ijtimoiy ziddiyatlarni fojiali pafosdan ko'ra, sokin, ammo chuqur psixologik tasvirlar orqali badiiy umumlashtiradi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari hikoya janrining ijtimoiy-madaniy jarayonlarga tezkor va samarali estetik munosabat bildirishdagi imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Abduqayum Yo'ldosh hikoyalari misolida zamonaviy o'zbek hikoyachiligi jamiyatdagi axloqiy inqiroz va ruhiy ziddiyatlarni badiiy umumlashtirishda yetakchi janr sifatida namoyon bo'layotgani asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqayum Yo'ldosh Puankare [Matn]: hikoyalar / - Toshkent: Akademnashr, 2022.- 144 b. (176 b.)
2. Q. Yo'ldosh, M. Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari / - Toshkent: «KAMALAK» nashriyoti 2016. - 283 b. (464 b.)
3. Nazar Eshonqul. Kitob bandasi. Maqolalar, esselar. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - B. 318. (416)
4. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. / - Toshkent: "KAMALAK" nashriyoti 2016. - 280-b. (- 464 b.)
5. Nazar Eshonqul. Kitob bandasi. Maqolalar, esselar. - Toshkent: Akademnashr, 2022. - B. 319. (416)
6. Yo'ldoshev, Abduqayum. Osmon og'ushi: A. Yo'ldoshev. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. — 42b . (296 b.)
7. Qo'shjonov, Matyoqub. Tanlangan asarlar: adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar. – T.: "Sharq", 2018. – 314 b. (712 b.)
8. Quronov, Dilmurod. Nazariy qaydlar [Matn] / D. Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 5 b. (128 b.)

